

MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLAR BAZASINI MUSTAHKAMLASH YO‘LLARI

Ataniyazov Jasurbek Xamidovich

TMI, “Xalqaro moliya-kredit” kafedrası mudiri

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

E-mail: jasurbek156@gmail.com

Uzoqov Xusanboy Numonjonovich

BMA magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mahalliy budjetlarning daromadlari, ularni joriy holati tahlili hamda daromadlar bazasini shakllantirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘rganilib, mamlakatimizda qo‘llanilish imkoniyatlari tahlil qilingan.

***Kalit so‘zlar:** mahaliy budjetlar, budjet daromadlari, daromadlar bazasi, xarajatlarni rejalashtirish, davlat budjeti, moliyaviy resurslar.*

WAYS OF STRENGTHENING THE REVENUE BASE OF LOCAL BUDGETS

ANNOTATION

In this article, the income of local budgets, the analysis of their current state, the existing problems in the formation of the income base and the experience of foreign countries in their elimination are studied, and the possibilities of their application in our country are analyzed.

***Key words:** local budgets, budget revenues, revenue base, expenditure planning, state budget, financial resources.*

KIRISH

Rivojlangan mamlakatlarda mahalliy budjet mustaqil ravishda mahalliy soliqlar va yig‘imlar hisobiga shakllantiriladi. Bizning respublikamizda ham mahalliy budjet daromadlarini mahalliy soliqlar va yig‘imlar tashkil etadi. Mahalliy budjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, ijtimoiy infrastrukturani saqlash va rivojlantirishga davlat mablag‘larini taqsimlashda alohida ahamiyatga ega. Mamlakat budjetining tuzilishi birinchi navbatda davlat

tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Unitar tuzilishga ega bo'lgan mamlakatlarda budget tizimi ikki bosqichdan, davlat budgeti va mahalliy budgetlar dan iborat. Federal tuzilishga ega bo'lgan mamlakatlarda budget tizimi uch bo'g'indan iborat. Mahalliy budgetlar davlatning moliya tizimini asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrda Farmoniga muvofiq mahalliy budgetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash va nomarkazlashtirish asosida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliyalashtirish, budgetlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, yangi ish joylari yaratish hamda aholi bandligini ta'minlash, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hisobiga soliq salohiyatini kengaytirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora - tadbirlarni amalga oshirishda ularning mas'uliyatini oshirishni ta'minlash muhim vazifalardan biridir [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy budget – davlat budgetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar mablag'lari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq mablag'lar uchun ajratilgan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini baholash bevosita ushbu tushunchaning tub mohiyatini aniqlashni talab qiladi. Iqtisodchi olim I.Zaripova va V.Xafizovalar o'z tadqiqotlarida “hududiy moliyaviy imkoniyat” tushunchasi bilan “mahalliy moliyaviy imkoniyat” tushunchasini bir tomondan, “moliyaviy resurslar” va “moliyaviy imkoniyatlar” tushunchalarini ikkinchi tomondan bir xil ma'noda talqin etganlar [3].

A.СЕМЕНОВ esa byudjetlararo munosabatlarda hududlarning faqatgina soliq faoliyatiga e'tiborni qaratib, ulardagi imkoniyatlarning boshqa manbalari ularning tahlilidan chetda qolib ketgan [4].

Bir qator rus iqtisodchi olimlar esa hududlarning daromad bazalarini mustahkamlashda faqatgina soliq siyosatini fiskal maqsadlaridan kelib chiqib fiskal siyosatga bog'liq bo'lmagan mustaqil siyosat turlaridan biri hisoblanadi deb ko'rsatishgan [5].

Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan T.S.Malikov fiskal siyosatni “byudjet-soliq siyosati” talqinida tadqiqot olib borib, uning mazmuniga “bir tomondan, byudjet daromadlarini (oqilona) shakllantirish, ikkinchi tomondan, byudjet xarajatlarini (samarali) sarflash bilan bog‘liq” [6] deb ko‘rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday mustaqil davlat moliyaviy siyosatining zaruriy komponenti mahalliy o‘zini-o‘z boshqarish organlarining mavjudligiga borib taqaladi. Mahalliy va o‘zini-o‘z boshqarish organlariga yuklangan vazifalarni bajarish uchun ularga muayyan mulkiy va moliyaviy budjet huquqi beriladi.

Bu huquqlar o‘z budjetlarini tuzish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash, ular boshqaruviga berilgan korxonalarni boshqarish va ulardan daromad olish imkoniyatini yaratadi.

Hududiy davlat boshqaruv organlari moliyaviy tizimining asosiy tarkibiy qismi – bu mahalliy budjet qismi hisoblanadi.

Mahalliy budjetlarning davlat budjet siyosatidagi tutgan o‘rni mahalliy budjetlar daromadlarini tashkil etish hamda uning tarkibini belgilashda moliyaviy asos bo‘ladi. Mahalliy budjetlar moliyaviy mustaqilligini taminlash uchun ularning daromadlar bazasini ham mustaxkamlash zarur.

1-jadval.

2019-2021 yillarda davlat budjeti daromadlarining o‘zgarishi dinamikasi (mlrd.so‘m) [2]

Ko‘rsat kichlar	Yillar	2019	2020	2021
I. DAROMADLAR (MAQSADLI JAMG‘ARMALARSIZ) - JAMI		112 165,40	132 938,00	164 680,3
1. Bevosita soliqlar		31 676,80	45 206,90	58 930,4
1.1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	16 360,60	28 712,20	38 363,3
1.2	Yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	1 988,70	1 353,90	1 649,4
1.3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	12 668,50	15 140,80	18 917,7
1.4	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliq	658,9		
2. Bilvosita soliqlar		46 427,20	46 428,40	56 290,5
2.1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	33 809,80	31 177,40	38 439,0
2.2	Aktsiz solig‘i	10 314,70	11 697,30	13 086,6
2.3	Bojxona boji	2 302,70	3 553,70	4 764,9
3. Resurs to‘lovlari va mulk solig‘i		19 680,70	21 257,00	23 036,4
3.1	Mulk solig‘i	2 360,20	1 974,30	2 457,3

3.2	Yer solig'i	2 313,20	2 386,70	4 082,8
3.3	Er osti boylıklaridan foydalanganlik uchun soliq	14 692,80	16 417,10	15 811,9
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	314,5	478,8	684,4
4.	Yuqori daromaddan olinadigan soliq	107,9		
5.	Boshqa daromadlar	14 272,80	20 045,80	26 423,1

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin-ki, davlat budjeti daromadlarining tarkibida bevosita soliqlarning ulushi ortib bormoqda. 2019 yilda bevosita soliqlar hajmi 2021 yilga qaraganda deyarli 2 barobar tafovut kuzatishimiz mumkin. Bilvosita soliqlar hajmi esa esa bevosita soliqlarga qaraganda nisbatan sekin o'sishi kuzatilgan va 46,4 trln. so'mdan 56,3 trln. so'mga yetgan.

Biz yuqorida mahalliy budjet daromadlari haqida umumiy ma'lumot berib o'tdik. Endi mahalliy budjetlar daromadlarining davlat budjeti daromadlaridagi ulushini tahlil qilish uchun quyidagi jadval ma'lumotlaridan foydalanamiz (2-jadval).

2-jadval.

Mahalliy budjet daromadlarining 2019-2021 yillardagi dinamikasi tahlili (mlrd.so'm) [2]

Daromadlar	YILLAR		
	2019	2020	2021
Davlat budjeti (mlrd.so'm)	112 165,4	132 938,1	164 680,3
shu jumladan:			
Respublika budjeti (mlrd.so'm)	77031,2	105 235,2	129506,9
Davlat budjetiga nisbatan salmog'i (foizda)	68,7	79,2	78,6
Mahalliy budjetlar (mlrd.so'm)	35134,2	27702,9	35173,4
Davlat budjetiga nisbatan salmog'i (foizda)	31,3	20,8	21,4

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari keyingi yillarda zanjirli ravishda o'sib borgan. Shuningdek, bir vaqtning o'zida mahalliy budjetlarning daromadlari davlat budjeti daromadlariga nisbatan ancha oshgan, ya'ni 2.1-jadval ma'lumotlariga ko'ra davlat budjeti daromadlari tarkibida respublikasi budjetlarining ahamiyati ortib bormoqda. Jumladan, 2021 yilda davlat budjeti 2019 yilga nisbatan qariyb 1,5 barobarga ortgan. Tahlil qilinayotgan yillarda respublika budjeti daromadlari 1,67 barobarga ortgani holda, mahalliy budjetlar daromadlari esa o'zgarmagan.

3-jadval.

Mahalliy soliqlarning O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlaridagi ulushi (2019-2021 yillar) [2]

Ko‘rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil
Davlat maqsadli jamg‘armalar daromadlarisiz - jami	100	100	100
Shundan;			
Mahalliy soliqlar jami;	4,2	3,2	4,0
Mol-mulk solig‘i	2,1	1,5	1,5
Yer solig‘i	2,1	1,8	2,5

Davlat budjetining mahalliy budjetlardagi salmog‘i nisbatan past bo‘lib qolmoqda, 2019 yilda bu ko‘rsatkich 35173,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, jami Davlat budjeti daromadlariga nisbatan 21,4 foizni tashkil etgan.

Mahalliy budjetlar daromadlari Davlat budjeti daromadlaridagi ulushining o‘shishi salbiy holat hisoblanib, bu esa o‘z navbatida mahalliy budjetlar daromadlar bazasining mustahkamlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin va o‘z navbatida mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

3-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, mahalliy soliqlar bo‘yicha davlat budjetiga tushum 2019 yildagi ulushi 2021 yilga kelib 0,2 foizga kamaygan. Shunga mos ravishda 2019 yilda jami davlat budjeti daromadlarida yer solig‘i 2,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib 0,4 foizga oshgan.

MUHOKAMA

Barchamizga ma‘lumki, mahalliy budjetlarning eng muhim, asosiy daromad manbayi bo‘lib mahalliy soliq va yig‘imlar hisoblanadi. Ular hozirga qadar mahalliy budjet daromadlarim o‘shishiga qarab mutanosib ravishda shakllantirilib, takomillashtirilmoqda. Agarda mamlaktda bo‘layotga mahalliy budjet islohotlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mahalliy budjetlarning mavqeyini oshirish borasidagi chora-tadbirlarning aniq yo‘nalishi mahalliy budjetning daromad manbayini mustahkamlashga qaratilgandir. Bugungi kunga kelib ularning yangi turlari joriy etildi va amaliyotda samarali qo‘llanilib kelinmoqda.

Rivojlangan mamlakatlardagi mahalliy moliyaning tashkil etishning tajribasi shundan dalolat beradiki, aholiga yaratiladigan ijtimoiy ne‘matlarni (maorif, sog‘liqni saqlash, fan, ijtimoiy himoya va boshqalar) yetkazish asosan, mahalliy byudjetlar orqali yetkaziladi. Hozirda mahalliy davlat organlariga davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirishdek muhim vazifa yuklatilgan. Mamlakatning turli hududlarida

istiqomat etuvchi aholiga ijtimoiy – madaniy xizmat ko‘rsatish harajatlarini moliyalashtirish esa, asosan, mahalliy byudjetlar orqali amalga oshiriladi. Ma’lumki, davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish juda katta moddiy va moliyaviy resurslarni talab etadi. Umuman, davlat pul resurslarini mavjud byudjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlanishi asosan, quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- barcha darajadagi byudjetlarning mustaqilligi;
- byudjet tasnifi tizimi, hisob-byudjet hujjatlari va byudjet jarayoni tuzilishining yagonaligi;
- turli darajadagi byudjetlarning o‘zaro bog‘liqligi;
- davlat daromadlarini aniq manbalar bo‘yicha va harajatlar yo‘nalishlari (moddalari) bo‘yicha rejalashtirish;
- Davlat byudjeti harajatlarini byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida sarflash.

XULOSA

Mamlakatimiz budjet tizimida hali hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolar va amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar mavjuddir. Avvalambor yo‘lga qo‘yilishi kerak bo‘lgan eng muhim ishlardan biri, bu budjetdan moliyalashtirilayotgan muassasalar o‘z faoliyatlarida budjet mablag‘laridan oqilona foydalanishini nazorat qilish, budjet intizomiga to‘liq rioya etilishini ta‘minlash, budjet mablag‘larine ko‘zlangan maqsadlarga sarflanayotganligini yanada nazorat ostiga olishni yo‘lga qo‘yish kerak.

Avvalambor budjet jarayonida daromadlar o‘z vaqtida shakllantirilmasa, qancha xarajatlar rejalashtirilmasin hech qanday natijaga erishib bo‘lmaydi. Daromadlarni o‘z vaqtida kelib tushishini ta‘minlashni yo‘lga qo‘yish kerak. Qolaversa budjetdan qilinadigan xarajatlarni ham samarali taqsimlash va sarflash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun moliya organlarining, g‘aznachilikning joylardagi xodimlari, budjet tashliktlari va budjet jarayonida qatnashadigan boshqa sub`ektlarning kadrlar muammosi batamom hal qilinishi kerak. Davlat budjeti mablag‘larini suiste`mol qilinishini oldini olinishini, iqtisod qilinishini bevosita mamlakatimiz budjet tizimida tatbiq etilgan g‘aznachilik va davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bevosita bog‘lashimiz mumkin. Biz bitiruv malakaviy ishining ushbu bobida g‘aznachilik tomonidan budjetga tushadigan daromadlarni to‘liq qamrab olinishi, davlat xaridini yanada takomillashtirish masalasi, davlat xaridini tashkiliy-huquqiy mamlakatimiz budjet jaroyoni qatnashuvchi sub`ektlar hodimlarini malakasini oshirish, aholini ish bilan banlik darajasini oshirib, aholiga ajratiladigan ijtimoiy himoya xarajatlarini kamaytirib, mablag‘larni boshqa sohalarga yo‘naltirish kabi takliflarni berildi. O‘ylaymizki ushbu takliflar mamlakatimiz budjeti sohasida o‘z samarasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. 2013 yil 26 dekabr*
2. *<https://openbudget.uz/> - O'zbekiston Respublikasining "Ochiq budjet" portal ma'lumotlari*
3. *Зарипова И.Р., Хафизова В.Р. Баланс финансовых ресурсов территорий. 2-изд. Уфа: ГП Принт, 2001, 86-90 б.*
4. *Семенов А.В. Механизм распределения налогов между бюджетами регионов. М.: АОЗТ «Маска», 1999, с. 21-28.*
5. *П.Горкина, Н.Л.Тумановой, Н.Н.Шановаловой, Ю.В.Якутина. Экономика и право. Энциклопедический словарь Габлера. Пер. С нем. Под ред. А – М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. С.108.*
6. *Malikov T.S. Byudjet-soliq siyosati / T.S.Malikov, P.T.Jalilov; T.S.Malikovning umumiy tahriri ostida, O'z.R. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, TMI.-T.Akademnashr, 2011.-6-bet.*